«TASDIQLAYMAN»
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
rektori _____ O.A. Xalimov
2026 yil «28» yanvar

QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTINI 2026-2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Nukus - 2026

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Strategiya Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutining 2026–2030-yillarda ta’lim sifati, klinik-amaliy tayyorgarlik, ilmiy salohiyat, xalqaro hamkorlik, raqamli tibbiyot, innovatsiya va moliyaviy barqarorlik yo‘nalishlarida bosqichma-bosqich rivojlanishini belgilaydi.

Strategiya O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor vazifalar, shuningdek institutning 2026-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari, kompleks ish rejasi hamda rivojlantirish yo‘l xaritasidan kelib chiqib ishlab chiqildi.

Strategiyaning asosiy g‘oyasi — institutni Orolbo‘yi hududi uchun yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlaydigan, ilmiy-amaliy natijalarni sog‘liqni saqlash amaliyotiga joriy etadigan, raqamli tibbiyot va MedTech yo‘nalishlarida innovatsion yechimlar ishlab chiqadigan yetakchi oliy ta’lim muassasasiga aylantirishdan iborat.

II. STRATEGIK MAQSAD

2026-yildan 2030-yilga qadar Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutini Orolbo‘yi hududining tibbiy ta’lim, klinik-amaliy tayyorgarlik, ekologik tibbiyot, raqamli sog‘liqni saqlash, telemeditsina va MedTech innovatsiyalar bo‘yicha yetakchi oliy ta’lim hamda ilmiy-amaliy markaziga aylantirish.

III. ASOSIY TAMOYILLAR

- ta’lim, fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish;
- klinik kompetensiyaga yo‘naltirilgan tibbiy ta’limni rivojlantirish;
- Orolbo‘yi mintaqasi tibbiy-ekologik muammolarini ilmiy tadqiq etish;
- ilmiy natijalarni patent, dasturiy mahsulot, startap va spin-off loyihalar orqali amaliyotga joriy etish;
- raqamlashtirish, sun’iy intellekt va telemeditsina imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish;
- xalqaro hamkorlikni rasmiy shartnoma darajasidan aniq natijaga yo‘naltirish;
- moliyaviy barqarorlik va budjetdan tashqari mablag‘larni ko‘paytirish.

IV. USTUVOR YO‘NALISHLAR

1. Ta’lim sifati va o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish. O‘quv dasturlari TOP–300 universitetlar tajribasi asosida takomillashtiriladi, klinik fanlarda OSCE/OSPE, klinik keyslar, simulyatsion mashg‘ulotlar va amaliy ko‘nikmalarni baholash tizimi joriy etiladi.

2. Ilmiy salohiyat va ilmiy natijadorlikni oshirish. Kafedralarning kompleks ilmiy dasturlari, PhD/DSc dissertatsiyalari monitoringi, Scopus/Web of Science maqolalari sifati, h-index, patent, DGU va monografiyalar bo‘yicha aniq KPI tizimi joriy etiladi.

3. Raqamli tibbiyot, sun'iy intellekt va telemeditsina. DiagAI Hub, telemeditsina platformasi, DMED, elektron jurnal, virtual laboratoriyalar va AI savodxonligi kurslari bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi.

4. Klinik-amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish. Institut klinikasi, poliklinikasi, kafedra filiallari, rezidentura bazalari va hududiy tibbiyot muassasalari o'quv-amaliy jarayon bilan uzviy bog'lanadi.

5. Xalqaro hamkorlik va ta'lim eksporti. Korea University, Xitoy, Turkiya, Erasmus+ va boshqa hamkorlar bilan loyihalar grant, stajirovka, qo'shma dastur va ilmiy natijaga yo'naltiriladi.

6. Innovatsiya, startap va tijoratlashtirish. HealthTech/MedTech startaplar, patentlar, DGU, prototiplar, xo'jalik shartnomalari va spin-off korxonalarni shakllantirish mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

7. Infratuzilma va laboratoriya bazasini mustahkamlash. 700 o'rinli ma'ruza zali, zamonaviy laboratoriyalar, simulyatsion muhit, telemeditsina va virtual laboratoriyalar asosida ta'lim-ilm-amaliyot infratuzilmasi takomillashtiriladi.

V. 2030 YILGACHA ASOSIY MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

№	Ko'rsatkich nomi	2026-yildagi baza/reja	2030-yil maqsadi
1	Ilmiy salohiyat	2026-yilda 50 foizga yetkazish	2030-yilgacha 60–65 foizga yetkazish
2	Scopus/Web of Science bazalaridagi maqolalar	yiliga 40 ta	yiliga kamida 100 ta
3	Respublika ilmiy jurnallaridagi maqolalar	yiliga 250 ta	yiliga kamida 300 ta
4	h-index ≥3 bo'lgan professor-o'qituvchilar	15 nafar	kamida 35 nafar
5	PhD himoyalari	yiliga 5 nafar	2026–2030-yillarda kamida 35 nafar
6	DSc himoyalari	yiliga 2 nafar	2026–2030-yillarda kamida 12 nafar
7	Patent va DGU	yiliga 5 ta	yiliga kamida 10 ta
8	Xorijiy grant va investitsiyalar	yiliga 2 mln AQSH dollari	2026–2030-yillarda kamida 10 mln AQSH dollari
9	Davlat ilmiy grantlari	yiliga 2 mlrd so'm	yiliga kamida 5 mlrd so'm
10	Xo'jalik shartnomalari	0,08 mlrd so'm	yiliga kamida 1 mlrd so'm
11	Xorijiy talabalar	50 nafar	kamida 200 nafar
12	Ta'lim eksportidan tushum	50 ming AQSH dollari	kamida 250 ming AQSH dollari
13	Qo'shma ta'lim dasturlari	1 ta	kamida 3 ta
14	O'quv-metodik ishlar	2026-yilda 36 ta darslik va o'quv qo'llanma	2030-yilgacha yiliga kamida 50 ta darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va elektron o'quv resursi
15	Startap va spin-off loyihalar	2 ta moliyalashtiriladigan startap	kamida 5 ta amaliy startap/spin-off

VI. AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

I bosqich — 2026-yil: mavjud yo‘l xarita va maqsadli ko‘rsatkichlar asosida boshlang‘ich tizimni shakllantirish, ilmiy salohiyatni oshirish, raqamli loyihalarni ishga tushirish va xalqaro grant portfelini yaratish.

II bosqich — 2027–2028-yillar: o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, klinik-amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish, kafedralarning ilmiy reytingini joriy etish, startap va spin-off loyihalarni amaliy natijaga olib chiqish.

III bosqich — 2029–2030-yillar: QTIni Orolbo‘yi tibbiyoti, raqamli tibbiyot, ekologik salomatlik va MedTech yo‘nalishlarida hududiy ilmiy-amaliy markaz sifatida shakllantirish.

VII. MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

- institutning budjet va budjetdan tashqari mablag‘lari;
- davlat ilmiy grantlari va innovatsion jamg‘arma mablag‘lari;
- xalqaro grantlar, xorijiy investitsiyalar va beg‘araz ko‘mak;
- xo‘jalik shartnomalari va klinik xizmatlardan tushumlar;
- ta’lim xizmatlari eksportidan tushumlar;
- homiylik mablag‘lari va davlat-xususiy sheriklik loyihalari.

VIII. MONITORING VA HISOBDORLIK

Strategiya ijrosi rektor rahbarligidagi 2030 Strategik rivojlanish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan muvofiqlashtiriladi. Har chorakda topshiriqlar jadvali ijrosi tahlil qilinadi, har yarim yilda Institut kengashida muhokama qilinadi, har yili yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Kafedralar, fakultetlar va bo‘limlar kesimida KPI tizimi joriy etiladi. Bajarilmagan ko‘rsatkichlar bo‘yicha mas’ullar tomonidan tuzatish rejasi taqdim etiladi.

IX. YAKUNIY KUTILADIGAN NATIJA

2030-yilga kelib Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti ta’lim sifati, klinik-amaliy tayyorgarlik, ilmiy salohiyat, raqamli tibbiyot, xalqaro hamkorlik va MedTech innovatsiyalar bo‘yicha Orolbo‘yi mintaqasida yetakchi ilmiy-amaliy markazga aylanadi. Institutda yuqori malakali, raqamli kompetensiyaga ega, klinik amaliyotga tayyor tibbiyot kadrlari tayyorlanadi, ilmiy tadqiqot natijalari amaliyotga, startap va spin-off loyihalarga yo‘naltiriladi.

QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTINI 2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR JADVALI

№	Topshiriq	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas’ullar	Kutiladigan natija
1. Ta’lim sifati, o‘quv-metodik ishlar va ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish					
1	TOP–300 universitetlar dasturlari asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirish	Ta’lim yo‘nalishlari kesimida tahlil o‘tkazish, 2026-yildagi 20 ta dasturni asos qilib olib, 2030-yilgacha bosqichma-bosqich 35 ta dasturni yangilash.	2026–2030	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, kafedra mudirlari	Dasturlar xalqaro tajribaga moslashtiriladi.
2	Klinik fanlarda OSCE/OSPE baholash tizimini joriy etish	Klinik ko‘nikmalar chek-listlari, stanatsiyalar, simulyatsion keyslar va elektron baholash varaqalari ishlab chiqiladi.	2026–2028	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, klinik kafedralar	Bitiruvchilarning amaliy kompetensiyalari ob’ektiv baholanadi.
3	O‘quv-metodik ishlarni tizimli rivojlantirish	Kafedralar kesimida darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik ko‘rsatma, elektron o‘quv resursi va klinik keyslar rejasi ishlab chiqiladi; O‘quv-uslubiy kengashda ko‘rib chiqilib, nashr yoki elektron bazaga joylashtirish ta’minlanadi.	2026–2030	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, o‘quv-uslubiy bo‘lim, kafedra mudirlari	O‘quv-metodik ta’minot yangilanadi va har yili kamida 50 ta o‘quv-metodik mahsulot tayyorlanadi.
4	Registrator ofisi xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish	Talabalar murojaati, akademik ma’lumotnomalar, transkript, fan tanlash va nazorat hujjatlari elektron xizmatga o‘tkaziladi.	2026–2027	Registrator ofisi, raqamlashtirish bo‘limi	Talabalar uchun “bir darcha” xizmati shakllanadi.
5	Xalqaro akkreditatsiyaga tayyorlanadigan dasturlarni belgilash	Avvalo 2 ta mavjud dastur tajribasi asosida 2030-yilgacha kamida 5 ta dastur bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash hisoboti tayyorlanadi.	2027–2030	O‘quv ishlari prorektori, sifat nazorati bo‘limi	Ta’lim dasturlari xalqaro baholashga tayyor bo‘ladi.
2. Ilmiy salohiyat va ilmiy natijadorlik					
6	Ilmiy salohiyatni 60–65 foizga yetkazish	PhD/DSc himoyalari bo‘yicha shaxsiy kalendar rejalar, kafedra kesimida monitoring va ilmiy darajali kadrlarni jalb etish yo‘lga qo‘yiladi.	2026–2030	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, kafedra mudirlari	Ilmiy salohiyat 60–65 foizga yetadi.

№	Topshiriq	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Kutiladigan natija
7	PhD va DSc dissertatsiyalari monitoringini kuchaytirish	Har oy kafedrada, har chorak Institut kengashida doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar hisoboti ko'rib chiqiladi.	Doimiy	Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi	Himoyalar o'z vaqtida ta'minlanadi.
8	Scopus/Web of Science maqolalarini sifatli oshirish	Maqola mavzulari kafedra ilmiy yo'nalishlari bilan bog'lanadi, xorijiy hammualliflik va jurnal sifati bo'yicha ichki ekspertiza joriy etiladi.	2026–2030	Ilmiy ishlar prorektori, kafedralar	Yiliga kamida 100 ta xalqaro maqola chop etiladi.
9	h-index ≥3 bo'lgan professor-o'qituvchilar sonini oshirish	Google Scholar, Scopus Author ID, ORCID profillari yuritiladi; iqtibos oladigan maqolalar va obzor ishlari rejalashtiriladi.	2026–2030	Ilmiy bo'lim, kafedralar	h-index ≥3 bo'lganlar soni 35 nafarga yetadi.
10	"Orolbo'yi tibbiyoti va inson salomatligi" kompleks ilmiy dasturini ishlab chiqish	Ekologik omillar, reproduktiv salomatlik, bolalar salomatligi, ichki kasalliklar va raqamli diagnostika bo'yicha kafedralararo dastur tasdiqlanadi.	2026–2027	Ilmiy ishlar prorektori, klinik va nazariy kafedralar	Institutning yagona ilmiy brendi shakllanadi.
11	Patent, DGU va monografiyalar sonini oshirish	Har bir ilmiy ishlanma bo'yicha patentboplik ekspertizasi o'tkaziladi; DGU, uslubiy ishlanma va monografiya rejasi yuritiladi.	2026–2030	Ilmiy bo'lim, innovatsiya markazi	Yiliga kamida 10 ta patent/DGU olinadi.
3. Raqamli tibbiyot, sun'iy intellekt va telemeditsina					
12	DiagAI Hub loyihasini bosqichma-bosqich ishga tushirish	Loyiha hujjatlari, test rejimi, optimizatsiya, klinik keyslar va konsultatsiya jarayonlari integratsiya qilinadi.	2026–2028	Raqamlashtirish bo'limi, klinik kafedralar	AI asosidagi diagnostika va ta'lim muhiti yaratiladi.
13	Professor-o'qituvchilar va talabalar uchun AI savodxonligi kurslarini tashkil etish	ompisutdy.uz, aileaders.uz va boshqa onlayn platformalar orqali ro'yxatdan o'tkazish, sertifikatlarni hisobga olish yo'lga qo'yiladi.	2026–2027	Raqamlashtirish bo'limi, kafedralar	AIdan foydalanish madaniyati shakllanadi.
14	Tibbiy bilimlar bo'yicha Telegram bot va elektron maslahat tizimini yaratish	Bot orqali klinik savol-javob, o'quv materiallari va talabalar uchun yo'riqnomalar joylashtiriladi.	2026–2027	Raqamlashtirish bo'limi, mas'ul kafedralar	Talabalar uchun tezkor elektron yordam tizimi ishlaydi.

№	Topshiriq	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Kutiladigan natija
15	Telemeditsina platformasini yaratish	Inventarizatsiya, texnik imkoniyat, onlayn konsultatsiya, klinik baza va talabalar amaliyoti bilan integratsiya qilinadi.	2026–2028	Klinika, raqamlashtirish bo‘limi, klinik kafedralar	Hududiy tibbiyot muassasalari bilan masofaviy maslahat yo‘lga qo‘yiladi.
16	Mikrobiologiya va klinik fanlar bo‘yicha virtual laboratoriyalar bazasini kengaytirish	Virtual modullar ishlab chiqiladi, seminarlar o‘tkaziladi, o‘quv jarayoniga kiritiladi.	2026–2030	Nazariy kafedralar, raqamlashtirish bo‘limi	Kam resurs talab qiladigan zamonaviy laboratoriya muhiti paydo bo‘ladi.
17	DMED, elektron jurnal va biometrik nazoratni integratsiya qilish	Tizimlardan foydalanish bo‘yicha seminar, test rejimi va amaliy joriy etish ishlari olib boriladi.	2026–2027	O‘quv bo‘limi, IT bo‘limi, registrator ofisi	Boshqaruv va ta'lim jarayonida shaffoflik oshadi.
4. Klinik-amaliy tayyorgarlik va infratuzilma					
18	Institut klinikasi va poliklinikasini ta'lim-ilm-amaliyot markaziga aylantirish	Klinik baza, kafedra amaliyoti, rezidentlar tayyorgarligi, ilmiy tadqiqot va xizmat ko‘rsatish jarayoni yagona reja asosida bog‘lanadi.	2026–2030	Klinika rahbariyati, klinik kafedralar	Talabalarning real klinik ko‘nikmalari kuchayadi.
19	700 o‘rinli ma'ruza zali va o‘quv zonalarini tashkil etish	Loyiha-smeta hujjatlari, qurilish, zonalarni belgilash va jihozlash ishlari amalga oshiriladi.	2026–2029	Moliya-iqtisod bo‘limi, qurilish bo‘limi	Katta auditoriya va ommaviy o‘quv-tadbirlar uchun sharoit yaratiladi.
20	Kafedra filiallari faoliyatini amaliy natijaga yo‘naltirish	Filiallar bo‘yicha amaliyot grafigi, klinik ko‘nikmalar, ish beruvchi bilan hamkorlik va talabalar portfeli yuritiladi.	2026–2030	O‘quv ishlari prorektori, kafedralar	Filiallar rasmiy emas, amaliyot bazasi sifatida ishlaydi.
21	Simulyatsion va klinik ko‘nikmalar markazini kuchaytirish	Manekenlar, trenajyorlar, chek-listlar, klinik stsenariylar va videotahlil tizimi joriy etiladi.	2027–2030	O‘quv ishlari prorektori, klinik kafedralar	OSCE/OSPEga tayyorgarlik yaxshilanadi.
22	Rezident komplekslaridan tashqi xizmat tushumlarini ko‘paytirish	Rezidentlar soni, xizmat turlari, hisob-kitob va marketing rejasi ishlab chiqiladi.	2026–2030	Klinika, moliya bo‘limi	Budjetdan tashqari tushumlar oshadi.
5. Xalqaro hamkorlik va ta'lim eksporti					
23	Xorijiy talabalarni jalb etish bo‘yicha marketing tizimini yaratish	Rus/ingliz tilida qo‘llanmalar, qabul sahifasi, onlayn maslahat va agentlar bilan ishlash mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi.	2026–2030	Xalqaro hamkorlik bo‘limi, qabul komissiyasi	Xorijiy talabalar soni 200 nafarga yetadi.

№	Topshiriq	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Kutiladigan natija
24	Korea University bilan laboratoriya va ilmiy hamkorlikni natijaga yo‘naltirish	Laboratoriya ishga tushiriladi, stajirovka, texnik xavfsizlik, sifat nazorati va qo‘shma maqolalar rejasi bajariladi.	2026–2028	Ilmiy ishlar prorektori, xalqaro bo‘lim	Xalqaro laboratoriya asosida grant va maqolalar ko‘payadi.
25	Erasmus+, Xitoy, Turkiya va boshqa xalqaro grantlarda ishtirok etish	Memorandumlar, sheriklar, KA171 va boshqa arizalar tayyorlanadi, monitoring qilinadi va muddatlar bo‘yicha topshiriladi.	2026–2030	Xalqaro hamkorlik bo‘limi, kafedralar	Kamida 10 mln AQSH dollari grant/investitsiya jalb etiladi.
26	Akademik mobillik va qisqa muddatli stajirovkalarni kengaytirish	Yosh olimlar, doktorantlar va o‘qituvchilar 1–3 oylik stajirovkalarga maqsadli saralanadi.	2026–2030	Xalqaro bo‘lim, ilmiy bo‘lim	Yiliga kamida 20 nafar ishtirokchi xalqaro tajriba orttiradi.
27	Xalqaro konferentsiyalarni institut ilmiy brendiga aylantirish	Reproduktiv salomatlik, terapevtik kasalliklar, Orolbo‘yi salomatligi va raqamli tibbiyot mavzularida anjumanlar o‘tkaziladi.	Har yili	Ilmiy ishlar prorektori, kafedralar	QTIning ilmiy nufuzi va hamkorlik tarmog‘i kengayadi.
6. Innovatsiya, startap va tijoratlashtirish					
28	HealthTech/MedTech startap ofisini tashkil etish	Talaba va yosh olimlar g‘oyalari loyiha pasporti, prototip, biznes-model va grant arizasiga aylantiriladi.	2026–2027	Innovatsiya markazi, ilmiy bo‘lim	Yiliga kamida 10 ta startap inkubatsiyadan o‘tadi.
29	Ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish tizimini yaratish	Dissertatsiya, grant va kafedra natijalari ekspert kengashida ko‘rib chiqilib, amaliyotga joriy etish hujjatlari rasmiylashtiriladi.	Doimiy	Ilmiy ishlar prorektori, kafedralar	Ilmiy ishlar real amaliyot bilan bog‘lanadi.
30	Spin-off korxonalar va xo‘jalik shartnomalarini ko‘paytirish	Patent/DGU va prototiplar asosida xizmat yoki mahsulot modeli tayyorlanadi, yuridik va moliyaviy mexanizm belgilanadi.	2027–2030	Innovatsiya markazi, yuridik bo‘lim, moliya bo‘limi	Kamida 5 ta amaliy startap/spin-off shakllanadi.
31	Innovatsion jamg‘arma mablag‘larini maqsadli yo‘naltirish	Startap, prototip, patent, maqola, laboratoriya va yosh olimlar grantlariga ochiq ichki tanlov tizimi joriy etiladi.	2026–2030	Moliya bo‘limi, innovatsiya markazi	Innovatsion mablag‘lar natijaga bog‘lanadi.
32	Ish beruvchilar va klinik bazalar muammolari banklarini shakllantirish	Klinika va hududiy tibbiyot muassasalari muammolari asosida talabalar va yosh olimlar uchun amaliy loyihalar taklif etiladi.	2027–2030	Karera markazi, klinik kafedralar	Ilmiy ishlar sog‘liqni saqlash ehtiyojiga moslashadi.

№	Topshiriq	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Kutiladigan natija
7. Boshqaruv, monitoring va moliyaviy barqarorlik					
33	2030 Strategik rivojlanish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish	Rektor rahbarligida prorektorlar, bo'limlar, kafedralar va talabalar vakillaridan iborat ishchi guruh shakllantiriladi.	2026-yil	Rektor, mas'ul prorektorlar	Strategiya ijrosi yagona boshqaruv ostida ta'minlanadi.
34	Kafedralar reytingi va KPI tizimini joriy etish	Ta'lim sifati, ilmiy natija, grant, maqola, patent, talabalar muvaffaqiyati va amaliyot bo'yicha reyting yuritiladi.	2026–2027	Rektorat, sifat nazorati bo'limi	Kafedralar faoliyati natijaga yo'naladi.
35	Har chorakda strategiya ijrosi bo'yicha monitoring o'tkazish	Har bir topshiriq bo'yicha muddat, mas'ul, natija va muammo tahlil qilinib, Institut kengashiga kiritiladi.	Har chorak	Muvofiqlashtiruvchi kengash	Ijro intizomi va hisobdorlik kuchayadi.
36	Budjetdan tashqari mablag'larni diversifikatsiya qilish	Xalqaro grantlar, ta'lim eksporti, xo'jalik shartnomalari, klinik xizmatlar, innovatsion jamg'arma va homiylik manbalari kengaytiriladi.	2026–2030	Moliya bo'limi, xalqaro bo'lim, klinika	Institut moliyaviy barqarorligi oshadi.
37	Yillik ochiq hisobot va 2030 strategiyasini yangilab borish	Har yili ko'rsatkichlar ijrosi bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlanadi, zarur hollarda strategiyaga takliflar kiritiladi.	Har yili	Rektorat, muvofiqlashtiruvchi kengash	Strategiya jonli va amaliy boshqaruv hujjatiga aylanadi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor M. Kurbanazarov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor R. Ametov

Yoshlar masalalari va ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha prorektor Z. Aleuov